

ARAB TILIDA KVAZISINONIMLAR

Azizjon M. Muxammadjonov

Doktorant, o‘qituvchi

Arabshunoslik oliy maktabi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Toshkent, O‘zbekiston

azizmuhammadiy222@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada arab tilida sinonimlik munosabatining chegaraviy ko‘rinishi bo‘lgan kvazisinonimiya hodisasi, uning shakllanish omillari va leksik-semantik mezonlari tahlil qilinadi. Sinonimlikni belgilashda ma’no yaqinligi, kontekstda erkin almashtirish imkoniyati hamda bir xil savolga javob bo‘lish mezonlari asosiy tayanch sifatida qaralsa-da, zamonaviy tadqiqotlarda sinonimik qatordagi birliklar faqat bitta so‘z turkumiga mansub bo‘lishi haqidagi talab universal qoida sifatida qat’iylashtirilmayapti. Kuzatuvlar bir semantik maydon doirasida turli so‘z turkumlariga oid birliklar ham muayyan nutqiy sharoitda ekvivalentlashib, kvazisinonimik munosabatni yuzaga keltirishini ko‘rsatadi. Maqolada “kvazi-” prefiksining terminologik xususiyatlari, kvazisinonimlarning semantik o‘xshashlik darajasi va grammatik belgilariga ko‘ra guruhlanishi hamda P. A. Lekant tomonidan taklif etilgan tasnif yoritiladi. Natijalar kvazisinonimiyani “mutloq tenglik” emas, balki “kontekstual yaqinlik” va “qisman yaqinlik” asosida izohlash zarurligini ko‘rsatadi, bu yondashuv leksik tizimni aniqroq talqin etish, leksikografik belgilash va tarjima amaliyotida ma’no nozikliklarini ajratishga xizmat qiladi.

Kalit soʻzlar: kvazisinonimiya, sinonimiya mezonlari, leksik-semantik tizim, kontekstual ekvivalentlik, mutloq sinonimlik, yaqin (qisman) sinonimlik, tur–jins munosabati, soʻz turkumlariaro yaqinlik, uslubiy-pragmatik tanlov.

ABSTRACT

This article analyzes quasi-synonymy in Arabic as a boundary type of synonymic relation and discusses the criteria and mechanisms underlying its formation. While synonymy is typically defined through semantic proximity, contextual substitutability, and the ability to answer the same question, modern research does not always treat “belonging to the same part of speech” as a universal requirement. Observations show that items from different grammatical categories may become equivalent in particular discourse conditions, thus forming quasi-synonymic relations. The paper outlines the terminological properties of the prefix quasi-, classifies quasi-synonyms by the degree of semantic overlap and grammatical features, and discusses P. A. Lekant’s typology based on semantic proximity. The findings suggest that quasi-synonymy should be interpreted not as absolute equivalence but as contextual proximity and partial overlap, which supports more accurate interpretation of the lexical system and improved lexicographic labeling and translation practice.

Keywords: quasi-synonymy; synonymy criteria; lexical-semantic system; contextual equivalence; absolute synonymy; near (partial) synonymy; genus–species relation; cross-category proximity; stylistic-pragmatic choice.

АННОТАЦИЯ

В статье рассматривается квазисинонимия в арабском языке как пограничный тип синонимических отношений и анализируются её критерии и механизмы формирования. Хотя синонимия традиционно

определяется через семантическую близость, контекстуальную взаимозаменяемость и способность отвечать на один и тот же вопрос, современные исследования не всегда признают принадлежность единиц к одной части речи универсальным условием. Наблюдения показывают, что единицы разных грамматических классов могут эквивалентироваться в определённых речевых условиях, формируя квазисинонимические связи. Освещаются терминологические особенности приставки quasi-, классификация квазисинонимов по степени семантического совпадения и грамматическим признакам, а также типология П. А. Леканта, основанная на семантической близости. Результаты свидетельствуют о необходимости трактовать квазисинонимию не как абсолютное тождество, а как контекстуальную близость и частичное совпадение, что способствует более корректной интерпретации лексической системы, лексикографической маркировке и переводческой практике.

Ключевые слова: квазисинонимия; критерии синонимии; лексико-семантическая система; контекстуальная эквивалентность; абсолютная синонимия; близкая (частичная) синонимия; родо-видовые отношения; межчастеречная близость; стилистико-прагматический выбор.

KIRISH

Dunyo tillarida bir denotativ tushunchaning bir nechta leksik birliklar orqali nomlanishi keng uchraydigan hodisadir. Bu holat sinonimlikni baholashda mezon masalasini bevosita kun tartibiga olib chiqib, “qaysi birliklar semantik tarkibi hamda qo‘llanish doirasi jihatidan to‘liq ekvivalent bo‘lib haqiqiy sinonim sifatida tan olinadi, qaysilari esa faqat ma’no yaqinligini ifodalab, uslubiy yoki kontekstual cheklovlar sabab yarim sinonim doirasida qoladi?” degan savollarni yuzaga keltiradi (Lyons, 1977; Cruse, 1986; Murphy, 2003; ‘Umar, 2009). Arab tilida bu masala ayniqsa dolzarb

bo‘lib, semantik maydonlarning kengligi va leksik qatlamning rang-barangligi sinonimik yaqinlikning turli shakllarini yuzaga chiqaradi. Shuning uchun sinonimlik faqat “lug‘aviy boylik” ko‘rsatkichi emas, balki leksik-semantik tizimni baholash mezonlarini aniqlash nuqtayi nazaridan ham muhim muammo sifatida namoyon bo‘ladi.

Sinonimlik hodisasi tilshunoslikda muhim semantik munosabatlardan biri bo‘lib, uning asosiy mezonlari quyidagilardan iborat: birinchidan, so‘zlar ma’nolarining o‘zaro yaqin yoki mos bo‘lishi, ikkinchidan, ular ma’lum kontekstda bir-birini erkin almashtira olishi, uchinchidan, sinonim birliklar bir xil savolga javob bo‘la olishi bilan ajralib turadi. Biroq sinonimik qatordagi birliklar faqat bitta so‘z turkumiga mansub bo‘ladi degan mezon zamonaviy lingvistik talqinlarda qat’iy universal qoidalar sirasiga kiritilmayapti. Kuzatuvlar shuni ko‘rsatmoqdaki, sinonimik qatorlarda ayni bir ma’noviy maydonga mansub, ammo turli so‘z turkumlariga oid birliklar ham faol ishtirok etmoqda. Mazkur holat tilshunoslikda kvazisinonimlar deb ataluvchi hodisa orqali izohlanadi.

“Kvazi-” prefiksi lotin tiliga mansub bo‘lib, “xayoliy”, “soxta”, “haqiqatdan yiroq” kabi ma’nolarni anglatadi, terminologik tizimda esa u, ko‘pincha, “to‘liq emas, deyarli”, “taxminan” mazmunini bildirib, ekvivalentlikning mutloq emasligini ifodalaydi. Ushbu morfematik element dastlab XVIII asrda cherkov terminologiyasida qo‘llangan, XIX asrda rus tiliga kirib, tibbiyot, tabiiy fanlar, ijtimoiy sohalar, adabiyot va tilshunoslik terminologiyasida keng yoyilgan. Natijada “kvazi-” bilan yasalgan terminlar obyektning mavjudlik darajasi, haqiqatga yaqinlik yoki undan yiroqlik holatini, shuningdek, ayrim manbalarda qayd etilganidek, “deyarli”, “taxminan” semasini ham bildirishi mumkin.

Mazkur maqolaning maqsadi arab tilida kvazisinonimiyaning yuzaga kelish mexanizmlarini (semantik qoplanish darajasi, kontekstual

ekvivalentlashuv, tur–jins munosabati, so‘z turkumlariaro yaqinlashuv) tizimli yoritish hamda sinonimlikni baholashda “mutloq sinonimlik” va “yaqin (qisman) sinonimlik” bilan bir qatorda kvazisinonimik munosabatni ham aniqroq ajratish mezonlarini asoslashdir.

QO‘LLANGAN USULLAR

Tadqiqotda qiyosiy-semantik, kontekstual-distributsion va leksikografik tahlil usullari qo‘llandi. Kvazisinonimlarni aniqlashda : semantik o‘xshashlik darajasini belgilash, kontekstda almashtirish imkoniyatini tekshirish, tur–jins (rod–tur) munosabatini ajratish hamda uslubiy-pragmatik yuklamani kuzatish mezonlari tayanch qilib olindi.

3. NATIJALAR

O‘tkazilgan manba va kontekst tahlili natijasida arab tilida kvazisinonimiya hodisasi bir omil bilan emas, balki o‘zaro bog‘liq semantik va nutqiy mexanizmlar majmui bilan izohlanishi aniqlandi. Natijalar asosiy yo‘nalishlar bo‘yicha quyidagicha umumlashtirildi.

Kvazisinonimlarning tasnifi

Tadqiqotda kvazisinonimlar semantik o‘xshashlik darajasi va grammatik xususiyatlariga ko‘ra bir necha guruhga ajratilishi kuzatildi:

Birinchi guruh yaqqol ma‘nodoshlikni ifodalovchi birliklar. Bu guruhda umumiy semantik yadro kuchli bo‘lib, farqlovchi sema ko‘pincha nominativ fokus yoki uslubiy rangda namoyon bo‘ladi. Masalan:

- بَيْت (bayt) — “uy” va مَبْنَى (mabnā) — “bino”;
- مَوْهَبَةٌ (mawhiba) — “iste’dod” hamda عَبْقَرِيَّةٌ (‘abqariyya) — “daholik” (Majma‘ al-Lugha al-‘Arabiyya, 2004).

Ikkinchi guruh qisman semantik yaqinlikka ega, lekin qo‘llanish sohasi jihatidan farqlanuvchi birliklar. Bu holatda ko‘pincha tur–jins munosabati kvazisinonimik idrokka sabab bo‘ladi. Masalan:

- مَعْدِنٌ (ma‘din) — “metall/ma’dan” va حَدِيدٌ (ḥadīd) — “temir” (Majma‘ al-Lugha al-‘Arabiyya, 2004).

Uchinchi guruh ziddiyatli semantik birliklar bo‘lishiga qaramay, kontekstda sinonimik vazifani bajara oladigan holatlar. Bu guruhda ekvivalentlik “mutloq ma’no tengligi” bilan emas, nutqiy vazifa va pragmatik maqsad bilan yuzaga keladi. Masalan:

- صَلَابَةٌ (ṣalāba) — “qattqlik” va لِينٌ (līn) — “yumshoqlik”;
- شَفَافِيَّةٌ (shaffāfiyya) — “shaffoflik” va عَمَمَةٌ (‘atma) — “qorong‘ulik” (Majma‘ al-Lugha al-‘Arabiyya, 2004).

MUHOKAMA

Arab tilida kvazisinonimiya hodisasi ko‘pincha “mutloq bir xil ma’no” ko‘rinishida emas, balki bir semantik maydon ichida ma’no qatlamlarining qisman qoplanishi va kontekst talabiga ko‘ra turlicha faollashuvi sifatida namoyon bo‘ladi. Bunda tilning ichki imkoniyatlari (semantik darajalilik, ma’no qatlamliligi, uslubiy rang) hamda nutqiy sharoit (kontekst, kommunikativ maqsad) bir-biri bilan uzviy bog‘lanib, kvazisinonimik munosabatlarning shakllanishiga xizmat qiladi. Shuning uchun sinonimlik masalasini muhokama qilishda faqat lug‘aviy “tenglik”ni emas, balki so‘zning kontekstda bajarayotgan vazifasi, uslubiy yuklamasi va semantik qamrov farqlarini ham hisobga olish zarur (Lyons, 1977; Cruse, 1986; Murphy, 2003; ‘Umar, 2009).

Kvazisinonimiyada birinchi muhim omil semantik qoplanish darajasidir. Cruse (1986) qarashlarida sinonimlikning muhim belgilaridan biri

“almashtirish imkoniyati” bo‘lsa-da, bu imkoniyat doimo to‘liq bo‘lmashligi, ayrim hollarda “yaqinlashuv” darajasida qolishi qayd etiladi. Arab tilidagi *بَيْتٌ* va *مَبْنًى* juftligi buni yaqqol ko‘rsatadi: ikkalasi ham “uy/bino” maydonida yaqinlashadi, ammo *مَبْنًى* ko‘proq “qurilgan inshoot” semasini, *بَيْتٌ* esa “xonadon, yashash joyi” semasini kuchliroq faollashtiradi (Majma‘ al-Lugha al-‘Arabiyya, 2004). Natijada ular ayrim matnlarda o‘rin almashishi mumkin bo‘lsa-da, hamma kontekstda bir xil nominativ fokusni bermaydi. Xuddi shuningdek, *مَوْهَبَةٌ* “iste’dod” va *عَبْقَرِيَّةٌ* “daholik” juftligida umumiy sema “qobiliyat” bo‘lsa-da, ikkinchi birlik “favqulodda yuqori daraja” bahosini kuchaytiradi; demak, bu ham kvazisinonimiyaga xos “umumiylik” modelidir (Majma‘ al-Lugha al-‘Arabiyya, 2004).

Ikkinchi muhim omil tur–jins munosabatining kvazisinonimik idrokidir. Masalan, *مَعْدِنٌ* “ma’dan/metall” va *حَدِيدٌ* “temir” juftligida semantik qamrov teng emas: birinchisi umumiy (jins), ikkinchisi xususiy (tur). Biroq kundalik nutqda yoki izohiy uslubda muayyan mavzu (masalan, temir haqida gap ketayotgan sharoit) bu farqni “susaytirib”, ekvivalentlik taassurotini kuchaytiradi. Shunday qilib, kvazisinonimiya ko‘pincha “tizim darajasidagi farq” bilan “nutq darajasidagi yaqinlashuv” o‘rtasidagi kesishuvdan tug‘iladi.

Uchinchi omil ziddiyatli birliklarning kontekstda sinonimik vazifa bajarishidir. *صَلَابَةٌ* “qattiqlik” va *لَيِّنٌ* “yumshoqlik” yoki *شَفَافِيَّةٌ* “shaffoflik” va *عَمَمَةٌ* “qorong‘ulik” birliklari lug‘aviy jihatdan zid semali bo‘lsa-da, ayrim pragmatik vaziyatda (masalan, kuchli baholash, ironik tasvir, kontrast orqali ta’sirni kuchaytirish) ular “bir holatni keskin ifodalash” nuqtayi nazaridan funksional yaqinlashishi mumkin. Bu yerda ekvivalentlik “ma’no tengligi” bilan emas, kommunikativ maqsad bilan belgilanadi, shu sabab bunday holatlarni “mutloq sinonimlik” emas, kvazisinonimiyaga xos “kontekstual ekvivalentlik” sifatida baholash ilmiy jihatdan aniqroq bo‘ladi.

To‘rtinchi omil so‘z turkumlariaro kvazisinonimik yaqinlashuvdir. Shuni alohida ta’kidlash joizki, an’anaviy sinonimlar odatda bitta so‘z turkumiga mansub birliklar asosida shakllansa, kvazisinonimlar til tizimida turli so‘z turkumlari o‘rtasida ham sinonimik aloqalarni yuzaga keltirishi bilan farqlanadi. Bu holat, bir tomondan, nutqda “axborot qiymati”ning bir xil yo‘nalishda yetkazilishi, ikkinchi tomondan, terminologik-izohiy amaliyotdagi soddalashtirish bilan bog‘liq. Masalan, ayrim ilmiy nutqda ot shaklidagi birlik bilan harakat nomi yoki sifat ifodasi bir vazifani bajarib, bir xil mazmunni yetkazadi. Keltirilgan misollarda ham shunga o‘xshash o‘tishlar ko‘rinadi: التَّأْصِيلُ المعجمي (lemmatizatsiya) ot va تَأْصِيلٌ (lemmatizatsiyalash) fe‘l harakat nomi; التجْدُّدُ (regeneratsiya) — ot va إِعَادَةُ الْبِنَاءِ (qayta tiklanish) — fe‘l harakat nomi; shuningdek, رُعْبٌ “dahshat” ot va زَائِعٌ “zo‘r” sifat kabi birliklar orasida kontekstga bog‘liq funksional yaqinlashuv yuzaga kelishi mumkin. Bu holatda “bir xil savolga javob bo‘lish” mezonini grammatik formal identiklikka emas, mazmuniy ekvivalentlikka tayanadi; natijada kvazisinonimiya sinonimlik mezonlarini “so‘z turkumi” bilan qat’iy cheklash har doim ham to‘g‘ri emasligini ko‘rsatadi.

Mazkur masalaga P. A. Lekant ham e’tibor qaratib, kvazisinonimlarni semantik yaqinlik asosida ikki asosiy guruhga bo‘ladi. Birinchi guruhga kiruvchi birliklar lug‘aviy ma’nodoshlikka ega bo‘lishi bilan birga, o‘ziga xos semantik noziklikni saqlaydi va ko‘pincha kontekstda o‘zaro almashtirishga yaroqli bo‘ladi. Masalan, طَرِيقٌ “yo‘l” va مَمَرٌ “yo‘lak”; شَرَّةٌ “ochko‘z” va بَخِيلٌ “ziqna” juftliklarida umumiy sema mavjud bo‘lsa-da, har bir birlikning uslubiy va ma’no soyasi farqlanadi. Ikkinchi guruhda esa faqat kontekstual muhitda ekvivalentlik kasb etuvchi, tur-jins munosabatlarini anglatuvchi birliklar mavjud: كَلْبٌ “it”, كَلْبٌ صَيِّدٌ “ov iti”, كَلْبٌ رَعِيٌّ “cho‘pon iti”, صَدِيقُ الْإِنْسَانِ “inson do‘sti” kabi birliklar ma’lum nutqiy vaziyatda bir nomlash maydonida yaqinlashadi. Xuddi shuningdek, التَّرَوَاتُ الْمَعْدِنِيَّةُ “foydali qazilmalar”, مَعَادِنٌ “ma’danlar”, فِلْزٌ “metall”, حَدِيدٌ “temir” terminlari ham ayni ikkinchi guruh

doirasida “qamrov farqi” saqlangan holda kontekstda ekvivalentlashishi mumkin.

Demak, kvazisinonimiya arab leksik-semantik tizimining “nozik chegaralari”ni ko‘rsatadi bir tomonda “mutloq sinonimlik”ka da’vo qiluvchi tenglik, ikkinchi tomonda esa “yaqin sinonimlik” va “kontekstual ekvivalentlik” doirasidagi darajali yaqinlashuv turadi. Bu yerda ilmiy vazifa ikki birlikning umumiy semasini tan olish bilan birga, farqlovchi semani ham yo‘qotmasdan talqin qilishdir. Aynan shunday yondashuv sinonimlikni ilmiy baholashda terminologik aniqlikni ta’minlaydi va kvazisinonimiyaning metodik qiymatini oshiradi.

XULOSA

Ushbu maqolada qo‘yilgan maqsad arab tilida kvazisinonimiya hodisasini tizimli yoritish va sinonimlik mezonlari doirasida uning o‘rnini aniqlashtirish bajarildi. Manba va kontekst tahlili kvazisinonimiyaning birgina omil natijasi emasligini, balki semantik qoplanishning darajali tabiati, kontekstual ekvivalentlashuv, tur–jins munosabatining “sinonimdek” idroki, ziddiyatli birliklarning pragmatik sharoitda yaqinlashuvi hamda so‘z turkumlariaro funksional ekvivalentlik kabi o‘zaro bog‘liq mexanizmlar majmui bilan yuzaga kelishini tasdiqladi. Tadqiqot gipotezasi kvazisinonimiya ko‘proq “mutloq tenglik”dan ko‘ra “kontekstual yaqinlik” asosida shakllanishi o‘z tasdig‘ini topdi. Shuningdek, natijalar arab tilida sinonimlikni ilmiy talqin qilishda “mutloq sinonimlik”, “yaqin (qisman) sinonimlik” va “kvazisinonimik ekvivalentlik”ni qat’iy farqlash zarurligini ko‘rsatdi; bu yondashuv leksik-semantik tizimni uslubiy va kontekstual omillar bilan birga to‘g‘ri talqin etishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. al-‘Askarī, Abū Hilāl al-Ḥasan ibn ‘Abd Allāh. (2005). *al-Furūq al-lughawīyah* [Linguistic differences]. (Muḥammad Bāsil ‘Uyūn al-Sūd, Ed.). Bayrūt: Dār al-Kutub al-‘Ilmiyya. (in Arabic).
2. Apresjan, Yu. D. (1974). *Leksicheskaya semantika: Sinonimicheskie sredstva yazyka* [Lexical semantics: Synonymic means of language]. Moskva: Nauka. (in Russian).
3. Croft, W., & Cruse, D. A. (2004). *Cognitive linguistics*. Cambridge: Cambridge University Press.
4. Cruse, D. A. (1986). *Lexical semantics*. Cambridge: Cambridge University Press.
5. Edmonds, P., & Hirst, G. (2002). Near-synonymy and lexical choice. *Computational Linguistics*, 28(2), 105–144. doi:10.1162/089120102760173625
6. Geeraerts, D. (2010). *Theories of lexical semantics*. New York, NY: Oxford University Press.
7. Ibn Fāris, Aḥmad. (1979). *Mu‘jam maqāyīs al-lugha* [Dictionary of language standards]. (‘Abd al-Salām Muḥammad Hārūn, Ed.). Bayrūt: Dār al-Fikr. (in Arabic).
8. Lekant, P. A. (Ed.). (2000). *Sovremennyy russkiy literaturnyy yazyk* [Modern Russian literary language]. Moskva: Vysshaya shkola. (in Russian).
9. Lyons, J. (1977). *Semantics* (Vols. 1–2). Cambridge: Cambridge University Press.
10. Majma‘ al-Lugha al-‘Arabiyya. (2004). *al-Mu‘jam al-Wasīṭ* (4th ed.). al-Qāhira: Majma‘ al-Lugha al-‘Arabiyya. (in Arabic).
11. Murphy, M. L. (2003). *Semantic relations and the lexicon: Antonymy, synonymy and other paradigms*. Cambridge: Cambridge University Press.
12. Murphy, M. L. (2010). *Lexical meaning*. Cambridge: Cambridge University Press.

13. Pustejovsky, J. (1995). *The generative lexicon*. Cambridge, MA: MIT Press.
14. Tha‘ālibī, ‘Abd al-Malik ibn Muḥammad. (2000). *Fiqh al-lugha wa-sirr al-‘Arabīyah* [Philology of language and the secret of Arabic]. al-Qāhira: Dār al-Ma‘ārif. (in Arabic).
15. ‘Umar, A. M. (2009). *‘Ilm al-dalāla* [Semantics]. al-Qāhira: ‘Ālam al-Kutub. (in Arabic).
16. Wierzbicka, A. (1992). *Semantics, culture, and cognition: Universal human concepts in culture-specific configurations*. New York, NY: Oxford University Press.